BOSHLANG‘ICH SINFDA MULOQOT MADANIYATI VA HISSIY TARBIYA UZVIYLIGI

Abrayeva Mehrangiz Bekmirza qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyati va hissiy tarbiyaning uzviyligi tahlil qilinadi. Hozirgi ta’lim jarayonida bolalarning hissiy-intellektual rivojlanishi, ularning o‘zaro muloqot madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Muloqot jarayoni orqali o‘quvchi o‘z hissiyotlarini boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarini egallaydi. Maqolada muloqot madaniyatining pedagogik-psixologik asoslari, hissiy tarbiya komponentlari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf darslarida muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali hissiy tarbiyani amalga oshirishning samarali yo‘llari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: muloqot madaniyati, hissiy tarbiya, hissiy intellekt, boshlang‘ich sinf, muloqot texnologiyasi, empatiya, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь культуры общения и эмоционального воспитания у учащихся начальных классов. В современном образовательном процессе эмоционально-интеллектуальное развитие детей тесно связано с культурой их общения. Через процесс общения ученик овладевает навыками управления своими эмоциями, понимания чувств других и построения правильных социальных отношений. В статье научно обоснованы психолого-педагогические основы культуры общения, компоненты эмоционального воспитания и их взаимосвязь. Также описаны эффективные пути реализации эмоционального воспитания через развитие культуры общения на уроках в начальных классах.

Ключевые слова: культура общения, эмоциональное воспитание, эмоциональный интеллект, начальные классы, технология общения, эмпатия, отношения учитель–ученик.

Annotation. This article analyzes the interrelation between communication culture and emotional education among primary school students. In the modern educational process, children’s emotional and intellectual development is closely connected with their communication culture. Through communication, students acquire the skills to manage their emotions, understand others’ feelings, and build proper social relationships. The article provides a scientific justification of the psychological and pedagogical foundations of communication culture, the components of emotional education, and their interconnection. It also describes

ISSN 3030-3907

effective ways to implement emotional education through the development of communication culture in primary school lessons.

Keywords: communication culture, emotional education, emotional intelligence, primary school, communication technology, empathy, teacher–student relationships.мм

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi pedagogik amaliyotda yangi talablarni yuzaga keltirdi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning hissiy dunyosini boyitish, ularni muloqot madaniyatiga o‘rgatish o‘qituvchi faoliyatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Chunki bolaning hissiy-intellektual o‘sishi muloqot jarayonida, ya’ni o‘qituvchi va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatda shakllanadi.

Hissiy tarbiya — bu bolaning o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash, ularni ijobiy yo‘naltirish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish jarayonidir. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda muloqot madaniyati markaziy o‘rin tutadi. O‘quv muloqotining sifati o‘quvchining o‘z fikrini erkin ifoda etishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, ijobiy emotsional muhitda o‘qish jarayonida ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda muloqot madaniyati faqat til yoki nutq malakasi emas, balki shaxsiy madaniyat, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va o‘zini anglashning muhim tarkibiy qismidir. Shu bois o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning hissiy holatini kuzatib, ularning muloqotdagi faolligini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Zamonaviy ta’lim psixologiyasi tadqiqotlariga ko‘ra, muloqot jarayonida yuz beradigan emotsional almashinuv o‘quvchilar o‘rtasida hamdardlik, hamkorlik va empatiya kabi ijobiy hissiy fazilatlarni rivojlantiradi. Shuning uchun hissiy tarbiya va muloqot madaniyati o‘zaro bog‘liq pedagogik kategoriyalar sifatida qaraladi.

Mazkur maqola ana shu uzviylikni ochib berish, muloqot madaniyati asosida hissiy tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish hamda amaliy yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Maqolaning metodologik asosi sifatida zamonaviy pedagogika, psixologiya hamda kommunikativ ta’lim nazariyalarining o‘zaro integratsiyasi asos qilib olindi. Tadqiqotda muloqot madaniyati va hissiy tarbiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash, ularning boshlang‘ich ta’lim jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik hodisa sifatida namoyon bo‘lish mexanizmlarini ochib berish maqsad qilingan.

Tadqiqotning metodologik yondashuvlari sifatida quyidagilar belgilandi:

ISSN 3030-3907

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi – bu yondashuv o‘quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlari, hissiy tajribalari va muloqotdagi faol ishtirokini e’tiborga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi;

Muloqot psixologiyasi nazariyasi – V.A. Kan-Kalik, A.A. Leontyev, B.F. Lomovlarning ilmiy qarashlariga tayanib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik muloqot mexanizmlari tahlil qilindi;

Hissiy intellekt nazariyasi – D. Goleman, P. Salovey va J. Mayerlarning ishlanmalari asosida o‘quvchilarda empatiya, o‘z hissiyotlarini boshqarish va boshqalar hissiyotini anglash ko‘nikmalari baholandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Nazariy tahlil metodi – mavzuga oid ilmiy manbalar, psixologik va pedagogik tadqiqotlar, o‘quv dasturlari hamda metodik qo‘llanmalar o‘rganildi.

2. Kuzatuv va suhbat metodi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida muloqot jarayoni, o‘qituvchining hissiy ta’siri, o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar holati aniqlash maqsadida kuzatishlar olib borildi.

3. Diagnostik so‘rovnoma metodi – o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida hissiy tarbiya va muloqot madaniyatiga oid savollar asosida so‘rovlar o‘tkazildi.

4. Eksperimental sinov ishlari – tajriba va nazorat sinflari misolida muloqot madaniyati asosida hissiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilib, ularning samaradorligi solishtirildi.

5. Matematik-statistik tahlil – olingan natijalar foizlar, diagrammalar va o‘rtacha ko‘rsatkichlar orqali qayta ishlanib, tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida asosiy e’tibor muloqot madaniyatining o‘quvchi hissiy rivojiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, o‘qituvchining kommunikativ mahorati orqali hissiy tarbiyani faollashtirish imkoniyatlarini ochib berishga qaratildi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda pedagogik tizimlilik yondashuvi ham qo‘llanildi. Bu yondashuv muloqot madaniyati va hissiy tarbiyani o‘zaro bog‘liq, bir butun jarayon sifatida talqin etadi. Muloqot madaniyatining o‘zida hissiy tarbiyaning shakllanish omillari mavjud: nutq odobi, tinglash madaniyati, hamdardlik, empatik yondashuv, konfliktni bartaraf etish madaniyati shular jumlasidandir.

Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuvdan ham foydalanildi. U muloqot madaniyatini rivojlantirish va hissiy tarbiyani shakllantirishni nafaqat didaktik, balki psixologik va axloqiy jihatdan o‘rganishni nazarda tutadi. Shu asosda o‘quvchilar nutq madaniyatidagi ijobiy o‘zgarishlar, sinfdoshlariga nisbatan hurmat, empatiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining ortishi qayd etildi.

Tadqiqot metodikasining muhim tarkibiy qismini pedagogik eksperiment tashkil etdi. Eksperiment uch bosqichda olib borildi:

ISSN 3030-3907

1. Diagnostik bosqich – o‘quvchilarning dastlabki muloqot madaniyati va hissiy tajriba darajalari aniqlandi;

2. Tajriba bosqichi – muloqot madaniyati elementlarini o‘quv jarayoniga tizimli tatbiq etish orqali hissiy tarbiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatildi;

3. Natijaviy bosqich – o‘zgarishlar tahlil qilinib, o‘quvchilarning hissiy-ijtimoiy faollik darajalari baholandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida interfaol metodlar (rol o‘yinlari, “Empatiya doirasi”, “Men seni tushundim”, “Hissiyot kartalari”) qo‘llanildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini ifoda etish, boshqalarni tinglash, hamdardlik bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Shu bilan birga, refleksiya mashqlari yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish va his-tuyg‘ularini anglash darajasi oshdi.

Tadqiqot davomida o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi ham tahlil qilindi. O‘qituvchi nutqidagi samimiylik, ohang, mimika va tana tili orqali hissiy aloqaning o‘rnatilishi o‘quvchi ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Bu esa pedagogik muloqot madaniyatining hissiy tarbiyada hal qiluvchi omil ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida muloqot madaniyati elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali ularning hissiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muloqot madaniyatiga asoslangan ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarda nafaqat nutqiy faoliyatni, balki empatiya, o‘zini boshqarish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi.

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarning muloqot madaniyati va hissiy intellekt darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- Emotsional ong (hissiyotlarni anglash va ifodalash qobiliyati);
- Empatiya (boshqalarning holatini tushunish va unga hamdardlik bildirish);
- O‘zini boshqarish (hissiy reaksiya ustidan nazorat);
- Ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari (tengdoshlar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatish).

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, o‘quvchi shaxsida hissiy barqarorlik va madaniyatli muloqot yurita olish qobiliyati bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. O‘qituvchi o‘zining kommunikativ uslubi orqali bolalarda ijobiy hissiy holat, ishonch va ochiqlik muhitini yaratgan taqdirda, o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari ham sezilarli yaxshilanadi.

Tahlil natijasida aniqlangan asosiy xulosalardan biri shundaki, muloqot madaniyatining rivojlanishi o‘quvchilarda hissiy intellektning uchta asosiy komponenti — emotsional anglash, empatiya va o‘zini boshqarishni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Shuningdek, o‘qituvchining dars jarayonida hissiy tarbiyaga yo‘naltirilgan kommunikativ texnikalardan (mimik ifoda, ovoz

ISSN 3030-3907

ohangi, ijobiy rag‘bat) foydalanishi o‘quvchilarning hissiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida muloqot madaniyati va hissiy tarbiya o‘zaro uzviy bog‘langan pedagogik hodisalardir. O‘quvchi shaxsining hissiy rivoji ko‘p jihatdan uning muloqotdagi tajribasiga, o‘qituvchining emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasiga hamda sinf muhitidagi ijtimoiy munosabatlarning sog‘lomligiga bog‘liqdir.

Bu xulosalar zamonaviy pedagogika va psixologiya sohasidagi bir qator olimlar fikrlari bilan hamohangdir. Jumladan, D. Goleman o‘zining “Emotional Intelligence” asarida hissiy intellektning shakllanishi bevosita shaxslararo muloqot jarayonida ro‘y berishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va boshqalar hissiyotini tushunish orqali ijtimoiy moslashuv va axloqiy madaniyatni o‘zlashtiradilar.

A.A. Leontyevning muloqot nazariyasiga ko‘ra esa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqaning mazmuni nafaqat axborot almashinuvi, balki shaxsiy ta’sir va hissiy rezonans orqali ham amalga oshadi. Shu bois muloqot madaniyati — bu faqat nutq madaniyati emas, balki hissiy madaniyat hamdir.

O‘zbekistonlik pedagog olimlardan M. Qodirova va N. Jo‘rayeva ta’kidlaganidek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijobiy hissiy tajribalarni shakllantirish ularning o‘qishga munosabatini o‘zgartiradi, darsga ishtiyoqni oshiradi hamda o‘z-o‘zini anglash jarayonini faollashtiradi.

Mazkur tadqiqotda olingan natijalar bu ilmiy fikrlarni amaliy jihatdan tasdiqladi. Tajriba sinfida muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning hissiy intellekt darajasini sezilarli oshirganini ko‘rsatdi. Bu, o‘z navbatida, hissiy tarbiya muloqot orqali amalga oshishi mumkinligini isbotlaydi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuvga asoslangan ta’lim texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim tizimida hissiy-intellektual rivojlanishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham pedagogik amaliyotda o‘qituvchilarning muloqot madaniyati, til ohangi va empatik yondashuvi ustida doimiy ishlash zarur.

Bundan tashqari, o‘quvchilar orasida hamkorlikdagi o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar va his-tuyg‘ularni ifoda etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ularning shaxslararo muloqotini boyitadi va sinf jamoasida o‘zaro ishonch muhitini kuchaytiradi. Bu esa ta’lim-tarbiyaning nafaqat bilish, balki hissiy va axloqiy yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim bosqichida muloqot madaniyatini rivojlantirish hissiy

ISSN 3030-3907

tarbiyaning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda ijobiy ijtimoiy xulq, mehr-muruvvat va o‘zaro hurmat kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirish hissiy tarbiya samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Muloqot jarayoni o‘quvchi shaxsining nafaqat nutqiy, balki hissiy-ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishida ham bevosita rol o‘ynaydi. Shuning uchun bu ikki yo‘nalishni bir-biridan ajratgan holda emas, balki o‘zaro uyg‘un tizimda ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-pedagogik xulosalarga kelindi:

1. Muloqot madaniyati va hissiy tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik jarayonlardir. Muloqot madaniyati o‘quvchi shaxsining hissiy ifoda vositasini, hissiy tarbiya esa bu madaniyatni mazmunan boyituvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Boshlang‘ich sinf davrida o‘quvchilarda empatiya, o‘zini boshqarish, tinglash madaniyati kabi hissiy-intellektual fazilatlarni shakllantirish o‘qituvchining kommunikativ uslubiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi dars jarayonida iliq muhit, samimiy muloqot va ijobiy his-tuyg‘ular asosida o‘zaro aloqani tashkil etsa, bu hissiy tarbiya samaradorligini oshiradi.

3. Muloqot madaniyatiga asoslangan interfaol mashg‘ulotlar (rol o‘yinlari, empatiya doiralari, hissiyot kartalari) o‘quvchilarda hissiy anglash va boshqarish darajasini oshirgan, sinf jamoasida ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirgan.

4. Hissiy-intellektual rivojlanish o‘quvchilarda o‘qishga ijobiy munosabat, o‘zaro hurmat, hamkorlik va murosaga tayyorlik fazilatlarini mustahkamlaydi.

Amaliy tavsiyalar

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun:

- Har bir darsda hissiy tarbiyaga yo‘naltirilgan kommunikativ usullarni (savol-javob, samimiy fikr almashinuvi, ijobiy baholash) qo‘llash tavsiya etiladi;
- Dars jarayonida o‘quvchilarning hissiy holatini hisobga olgan holda individual yondashuv qo‘llanilsin;
- O‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish bilan birga, ularni his-tuyg‘ularni boshqarish, boshqalarni tinglash va tushunishga o‘rgatish lozim.

2. Pedagogik jamoalar uchun:

- Maktab muhitida “Hissiy tarbiya haftaligi”, “Empatiya kuni” kabi interfaol tadbirlarni yo‘lga qo‘yish foydalidir;
- O‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan seminar-treninglar tizimli ravishda o‘tkazilishi zarur.

3. Ilmiy-metodik xizmatlar uchun:

- Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlariga “Hissiy madaniyat asoslari”, “Muloqot madaniyati” kabi mavzularni integratsiya qilish taklif etiladi;

ISSN 3030-3907

- Muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi shaxsining muloqot madaniyati o‘quvchi hissiy dunyosining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida hissiy tarbiya va muloqot madaniyatining uzviyligi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Dewey, J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938
3. Rogers, C. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin, 1961.
4. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 1995.
5. Mayer, J. D., & Salovey, P. What is Emotional Intelligence? In: Salovey, P. & Sluyter, D. (Eds.), Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications. — New York: Basic Books, 1997.
6. Jalolov, J. J. Pedagogik muloqot va o‘qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Karimov, N. Boshlang‘ich ta’limda muloqot madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
8. Xolmatova, M. Hissiy tarbiya va shaxs kamoloti. — Samarqand: Zarafshon, 2017.
9. Abdullaeva, Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. — Pedagogika jurnali, №4, 2021.
10. G‘ulomova, G. Muloqot madaniyatini rivojlantirishda o‘qituvchi shaxsining o‘rni. — O‘zbekiston pedagogika fanlari axborotnomasi, №2, 2019.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 14-iyun.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 6-aprel.

ISSN 3030-3907